

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



МЕНДЕЛЕЕВ ДМИТРИЙ ИВАНОВИЧ
(1834-1907)

2022
FEVRAL
№37



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
16-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-16**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-16**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 37-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 15 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

1. Matkarimov Jasurbek Abdumannobovich KOMPYUTERNI ISHLASH UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA SSD DISKINI O'RNI	7
2. Satlikov Alisher Abdullayevich O'QUVCHILARNI TEXNOLOGIYA DARSLARIDA YOG'OCH VA UNING KIMYOVIY, TEXNOLOGIK XOSSALARI BILAN TANISHTIRISH.....	9
3. Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li MAHALLALARDAGI ELEKTR TARMOQLARINI TAKOMILLASHTIRISH	11
4. Алишер Уринович Кобиров, Хуршида Кахоровна Кодирова АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ИНФОРМАТИЗАЦИИ	13



ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

КОМПЬУТЕРНИ ИШЛАШ УНУМДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА SSD DISKINI O'RNI

Matkarimov Jasurbek Abdumannobovich

Andijon davlat universiteti o'qituvchi

Telefon: +998(91) 169 66 59

mja_1985@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu ishda HDD va SSD diskleri ishlash prinsiplari imkoniyatlari bo'yicha nazariy ko'rsatmalar berilgan. Kompyuter ishini tezlashtirish uchun asosiy xotira xisoblangan HDD diskini SSD diskiga almashtirish yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: notebook, HDD, SSD, M.2, SATA III, disk, xotira.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi HDD disklariga ega bo'lgan kompyuterlar o'rni, SSD disklariga ega bo'lgan kompyuterlarga bo'shatib bermoqda. Yangi kompyuter olmoqchi bo'lgan foydalanuvchilar HDD va SSD diskiga ega kompyuterlarni afzal ko'rishmoqda.

SSD diskleri 2 xil turi mavjud bo'lib, 1-turi SSD yoki (SSD flash), 2-turi M.2 (SSDRAM) deyiladi. Xozirgi kunda M.2 ancha tez ishlovchi va tannarx jixatdan xam qimmatroq xisoblanadi. M.2 turidagi SSD diskleri zamonaviy yangi avlod kompyuterlari qo'llab-quvatlaydi.




SSD




SSD M.2

Ko'plab foydalanuvchilar esa foydalanib kelayotgan kompyuteridagi HDD diski o'rniga, SSD diskini joylashtirishmoqda. SSD diski kompyuteringizni ishlash unumdorligini HDD ga nisbatan ancha oshirib yuboradi. O'qish va yozish tezligi yuqoriligi, ulanish texnologiyasi SATA III xisoblanib ma'lumotlarni yozish tezligi 6 Gb/sek gacha yetadi. Og'irligi HDD ga qaraganda ancha ixcham va yengil. Xozirgi vaqtda juda ko'plab foydalanuvchilar ko'tarib yuruvchi (notebook) kompyuteridan foydalanishadi. Bunday foydalanuvchilar uchun energiya sarfi qancha kam bo'lsa shuncha yaxshi xisoblanadi. HDD disklerida barcha detallari xarakatda bo'ladi va energiya sarfini ko'p talab qiladi. SSD diskleri kam energiya talab qiladi va notebookingiz ko'proq vaqt ishlashi mumkin bo'ladi.



SSD



HDD

HDD (Hard disk drive)-qattiq disk xisoblanib ishlash prinsipi magnitli yozish xisoblanadi va kompyuterdagi ma'lumotlarni saqlaydi. Bu disklar germetik korpusga joylangan bo'lib, magnitlana oladigan qatlamga egadir. Magnitli disk aylanishi tufayli HDD diskiga ega kompyuterlar ancha shovqin chiqarishi mumkin. Ichidagi aylanuvchi disklar tufayfi issiqlik ajratadi va bu vaqtlar o'tishi bilan diskni yaroqsiz xolga keltirishi=hi mumkin bo'ladi. Magnitlana olishi sababli, magnit kuchlari bor joyda ma'lumotlarni yo'qotishi yoki zararlashi mumkin.

SSD (Solid state drive)-bu ham qattiq disk xisoblanib HDD dan farqli jihati ma'lumotlarni mikrosxemali xotirada saqlaydi va shovqin chiqarmaydi. SSD disklarini magnit maydonga aloqasi yo'q.

Xozirda SSD disklarini tannarxi HDD disklariga nisbatan bir oz qimmatroq xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Леонтьев.В.П Новейшая Энциклопедия, Компьютер и интернет 2016. Москва.
2. <https://www.terabayt.uz/post/ssd-yoki-hdd-agar-kompyuterdan-foydalansangiz-albatta-bu-ni-oqing>.
3. <https://www.info39.ru/articles.php?id=178>



O'QUVCHILARNI TEXNOLOGIYA DARSLARIDA YOG'OCH VA UNING KIMYOVIY, TEXNOLOGIK XOSSALARI BILAN TANISHTIRISH

Satlikov Alisher Abdullayevich
Xorazm viloyati Urganch shahri
6-sonli umumta'lim maktabining
Texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarga yog'och va uning xususiyatlari haqida, yog'och bilan ishlash texnologiyasi haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, dars, yog'och, xossa, modda, zichlik, qattiqlik, puxtalik.

“Texnologiya” darslari insonlar hayotida muhim o'rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishda muhim o'rin tutadi. Voyaga yetib, qaysi kasbni egallamang, kim bo'lmang, “Texnologiya” fanidan olgan bilim va ko'nikmalaringiz sizga hayotda, albatta, naf keltiradi. “Texnologiya” darslarida materialshunoslik, asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanishga oid bilimlarni o'zlashtirasiz. Mahsulot ishlab chiqarish va uy ro'zg'or buyumlarini ta'mirlashga oid ko'nikma va malakalarga ega bo'lasiz. Biz quyida yog'och va uning kimyoviy, texnologik xossalari bilan tanishamiz.

Yog'ochning kimyoviy xossalari. Yog'och asosan organik moddalardan tashkil topgan bo'lib, umumiy massasining 99 foizi turli yog'och, navlarining kimyoviy tarkibi deyarli bir xil bo'ladi. Quruq yog'och o'rtacha 49 foizi uglerod, 44 foizi kislorod, 6 foizi vodorod, 0,1–0,3 foizi azoddan tarkib topadi. Yog'och yondirilganda uning noorganik qismidan kul qoladi. Kulning tarkibiga kalsiy, kaliy, natriy, magniy va boshqa kimyoviy elementlar kiradi. Ushbu elementlar selyulloza, lignin kabi kimyoviy birikmalarni hosil qiladi. Bundan tashqari yog'ochning tarkibida kichik miqdorda smola, pektin, yog'lar va boshqa moddalar bo'lishi mumkin.

Yog'ochning texnologik xossalari. Yog'och konstruksion materiallari sifatida qaraladi. Uning eng asosiy xususiyatlari metall mixlarni tutib turish, yeyilish, egilish va yorilishga chidamlilik darajasi hisoblanadi. Misol tariqasida yog'ochning metall mix va birikmalarni tutib turish xususiyatini ko'rib chiqamiz. Daraxtning tolasiga ko'ndalang yo'nalishda qoqilgan mixni chiqarib olish uchun tola bo'ylab qoqilgan mixni tortib olishdan ko'ra 1,5 baravar ko'proq kuch sarflanadi. Burama mixni yog'ochdan chiqarib olish uchun esa oddiy mixni tortib olishdan ko'ra anchagina ko'proq kuch talab qilinadi. Chunki bunda ishqalanishni yengish va burama mix rezbasi joylashgan yog'och tolalarini uzishga kuch sarflashga to'g'ri keladi. Biroq, bolg'a bilan qoqib qo'yilgan burama mix birikmani oddiy mixdan ko'ra kamroq ushlaydi. Shu sababli, biriktirishda burama mixni to'g'ri ishlatish, ya'ni uni albatta yog'ochga burab kiritish lozim. Yog'ochning zichligi qanchalik yuqori bo'lsa, uning metall mixlarni tutib qolish sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Yog'ochning tashqi kuchlar ta'siriga qarshilik ko'rsata olishi yoki buzilmaslik qobiliyati, uning mexanik xossasi deyiladi. Yog'ochlarning puxtaligi, qattiqligi, egiluvchanligi, qovushqoqligi, mo'rtligi, yoriluvchanligi va mixlanuvchanligi ularning mexanikaviy xossalarini tashkil etadi.

Yog'ochning tashqi kuchlar ta'sirida buzilmasdan va mumkin qadar shaklini o'zgartirmasdan qarshilik ko'rsata olish qobiliyati yog'ochning puxtaligi deb ataladi. Yog'ochlarning puxtaligi siqilishga va egilishga tekshiriladi. Yog'ochning o'zidan qattiq jism botishiga qarshilik ko'rsata olishi qattiqlik deb ataladi. Qattiqlik yog'ochning turiga, zichligiga va namligiga bog'liq bo'ladi. Yog'ochning qattiqligini arralash, randalash, o'yish-teshish, mixlash jarayonlarida aniqlash mumkin.

Yog'ochlar qattiqlik darajasiga qarab uch guruhga bo'linadi:

Yumshoq yog'ochlar: qarag'ay, oq qarag'ay, archa, terak, tog'terak, arg'uvon va h.k.

Qattiq yog'ochlar: qayin, qora qayin, tilog'och, eman, zarang, bujun va h.k.

Juda qattiq yog'ochlar: nok, qayrag'och, yong'oq, akatsiya, shamshod, pista va h.k.

Yog'ochning tashqi kuch ta'sirida o'zgargan shaklini qayta tiklash qobiliyatiga yog'ochning elastikligi deyiladi. Yog'ochning elastikligi ularning namligiga, hajmiy og'irligiga, o'zak nurlarining o'lchami va soniga, daraxtning yoshiga bog'liq. Yog'och qancha quruq bo'lsa, u shuncha elastik bo'ladi. Elastik yog'ochlar zarbni yutadi va yumshatadi. Yog'ochning bu xususiyatidan foydalanib, undan mashina bolg'alarining sandoni, tagiga qo'yiladigan taglik-qistirmalar, nog'oralarning zarb berish cho'pi, bolg'a, iskana, egov, belkurak, ketmon, tesha dastalari tayyorlanadi.



Suv, tuproq havo va boshqa muhitlardagi zararli mikroorganizmlar yog‘ochning sirti yoki oraliq to‘qimalariga tushsa, yog‘och chiriy boshlaydi. Shuning oldini olish uchun yog‘ochni quruq holda saqlash unga ayrim kimyoviy moddalar shimdirish orqali chidamliligini oshirish yoki yog‘och sirtini aliflash, loklash hamda turli bo‘yoqlar bilan bo‘yash kabi usullar qo‘llaniladi.

Yog‘och ishqalanishga yaxshi chidamli emas. Shuning uchun turli asbob-uskunalarining ishqalanishiga uchrab ishlaydigan qismlari yog‘ochdan ko‘ra chidamliroq bo‘lgan boshqa materiallardan tayyorlanadi. Yog‘ochning qattiqligi unga boshqa qattiq jismning botishiga qarshilik ko‘rsatish darajasi bilan belgilanadi. Yog‘ochning qattiqligini aniqlashning eng oddiy usuli unga mix qoqib ko‘rishdan iborat. Oddiy mixni qayrag‘och, eman, shamshod, nok, akatsiya kabi qattiq yog‘ochlarga qoqib bo‘lmaydi, tol, terak, qarag‘ay kabi yumshoq yog‘ochlarga qoqiladi.

Hamma yog‘och turlari yaxshi yonadigan material hisoblanadi. Shuning uchun yog‘ochdan tayyorlangan maxsulotlarni yong‘indan saqlash choralari ko‘riladi. Ustaxonada yong‘in chiqishiga qarshi xavfsizlik choralarini muntazam bajarib borish shart.

Kuzatish usullari yog‘ochning sifatini belgilashda undan tayyorlanadigan buyum kattaligiga mos bo‘lgan sog‘lom qismi bor yoki yo‘qligini aniqlashdan iborat. Yog‘ochning ko‘ndalang va bo‘ylama qismlarini kuzatish orqali uning ichki qismlari chirimaganligi, boshqa turdagi zararlanishga uchramaganligi hamda rangi va guldorligi qanday ekanligi aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Texnologiya 7-sinf uchun darslik. T.; Sharq 2017
2. X.R.Sanaqulov. «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik.
3. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T.; TDPU. 2007-yil.



МАҲАЛЛАЛАРДАГИ ЕЛЕКТР ТАРМОQLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li

Urganch davlat universiteti Texnika

fakulteti 2-bosqich talabasi

Tel: +998912774727

E-mail: ogabekxamrayev678@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maishiy iste'molchilarni yangi zamonaviy sim kabellar, transformatorlar hamda aqlli hisoblagichlar bilan ta'minlash ishlarini takomillashtirish bo'yicha fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Sim kabellar, aqlli hisoblagichlar, zamonaviy ajratgichlar, transformatorlar, energiya tejamkorligi.

Yangi O'zbekistonimizni rivojlantirishni asosiy negizlaridan biri bu – elektr energiyasi sohasi hisoblanadi. Elektr energiyasiz hech bir sohani tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuningdek, ishlab chiqarish, savdo-sotiq, meditsina, transport, ayniqsa yoqilg'i quyish shaxobchalarini energiyasiz tasavvur qilish qiyin. O'zbekiston Respublikasidagi elektr stansiyalari va tarmoqlarini texnikaviy ekspluatatsiya qilish qoidalarini yanada takomillashtirish kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida bugun qishloq aholi punktlarining me'moriy qiyofasi tubdan yaxshilanib, turmush darajasi oshishiga xizmat qilmoqda. Yurtimiz hayotining barcha sohalarida kuzatilayotgan bu kabi shiddatli rivojlanish sur'atlari, eng avvalo, elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojning ortishiga olib kelishi tabiiy xoldir. Elektr quvvatiga nisbatan oshib borayotgan ehtiyojni to'laqonli qondirish, iste'molchilar uchun elektr yetkazib berishni sifatli ta'minlash uchun tizimda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa ko'chalarimizdagi tungi yoritgichlar o'rnatilishi yanada ko'paymoqda. Elektr energiyasi sanoati elektr energiyasini ishlab chiqarish va uni iste'molchilarga uzatish tarmoqlaridan iborat. Ushbu tarmoq mamlakat yoki iqtisodiy tuman miqyosida sanoatni joylashtirishga muhim ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikki yo'nalishda sodir bo'ladi. Birinchi yo'nalish elektr energiyani katta masofaga uzatishdan iborat. Bu esa mamlakatning barcha hududlarida sanoatni rivojlantirishga imkon beradi. Ikkinchi yo'nalish mo'l-ko'l va arzon elektr energiyasi ishlab chiqaradigan xududlarda energiyani ko'p talab qiladigan sanoat tarmoqlarini joylashtirishdan iborat. Elektr energiyasini ko'p talab qiladigan sanoat tarmoqlariga titan, alyuminiy, magniy, sintetik tola, sintetik kauchuk, sintetik ammiak ishlab chiqarish kiradi. Bir tonna titan ishlab chiqarish uchun 60 ming kVt/soat, magniy uchun 26 ming kVt/soat, alyuminiy ishlab chiqarish uchun esa 20 ming kVt/soat elektr energiyasi sarf bo'ladi. Demak, ishlab chiqarilgan maxsulot tan narxining asosiy qismini energetika harajatlari tashkil qilsa, bunday ishlab chiqarish ko'p energiya talab qiladigan ishlab chiqarish deb ataladi. Elektr energiyasini kamroq talab qiladigan tarmoqlarga qora metallurgiya (elektrometallurgiyadan tashqari), soda va qog'oz ishlab chiqarish, mashinasozlik, mebel, fanera va to'qimachilik sanoati kiradi.

O'zbekiston energetikasi rivoji uchun tabiiy iqlim sharoitlaridan oqilona foydalanish maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, xususan, quyosh energiyasi, shamol kuchi, yer osti suvlari harorati va kichik gidroelektr stansiyalardan foydalanish masalalari borasida keng tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Hozirgi kunda butun jahon miqyosida dolzarb muammo bo'lib turgan elektr energiyasi olimlarni fikricha 2030 yilga borib 2 barobarga oshishi ta'kidlanmoqda. Bunga sabab kundan-kunga mamlakatimizda zamonaviy texnika va texnologiyalarni paydo bo'lishidir, masalan, aholi ehtiyoji uchun muzlatgichlar, sovutgichlar va shunga o'xshash turli xildagi energiya sarf qilinuvchi jixozlarni keltirishimiz mumkin. Shuning uchun mamlakatimizda energiya sarfini sezilarli darajada kamaytirishda hozirgi zamon elektron qurilmalaridan keng foydalangan holda noan'anaviy energiya manbalaridan samarali foydalanib tejamkor elektr ta'minotini tashkil etish aholi turmush darajasini oshirishdan iboratdir. O'zbekistonning davlat siyosati va energetika strategiyasi o'zida quyidagilarni aks ettiradi:

-energiya tejamkorligini, yoqilg'i energetika majmuini ishlab chiqarish tarkibiy tuzilishini takomillashtirish;

-faoliyat yurituvchi quvvatlarining tarkibiy tuzilishini o'zgartirish;



- ikkilamchi resurslardan foydalanish;
- kichik va o'rtacha IES larni qurish;
- atrof-muhitga texnogen jarayonlar ta'sirini qisqartirishga yo'naltirilgan ilmiy-texnik va ekologik siyosat yuritish;
- tashqi iqtisodiy energetik hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- narx va soliq siyosati asosida energetika siyosatini yuritish mexanizmlari;
- investitsiya sohasidagi iqtisodiy siyosatni takomillashtirish;
- energetik komplekslar hamda me'yorlarni ishlab chiqish;

Hozirgi vaqtda mamlakatimizning elektrlashtirish tizimini yaratish va xalq xo'jaligini turli sohalarini elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun elektr energiyasining ko'p qismi (80% atrofida) issiqlik elektr stansiyalarida (IES) organik yoqilg'ining kimyoviy energiyasini o'zgartirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmi bo'yicha ikkinchi o'rinda gidroelektrostansiyalar (GES) turadi. Bunda gidroturbinalar va gidrogeneratorlar yordamida elektr energiyasiga o'zgartiriladigan daryolar oqimi energiyasidan foydalaniladi. Elektr energiyasini asosiy ishlab chiqaruvchilari qatorida issiqlik va gidroelektr stansiyalaridan keyin atom elektr stansiyalari (AES) turadi. Atom elektr stansiyalarining birlamchi energiyasi atomlar yadrolari energiyasi hisoblanadi. Bu energiya issiqlik energiyasiga o'zgartiriladi, keyin esa elektr energiyasini olish sxemasi esa, issiqlik elektr stansiyasi sxemasiga o'xshash bo'ladi.

Hozirgi kunda mahallalarda zamonaviy sim kabellar aholi iste'molchilarida keng qo'llanilmoqda. Bu esa elektr energiyasini isrofini yo'qolishiga olib kelmoqda. Elektr energiyasi isrofini oldina olish quyidagicha amalga oshiriladi:

- **Ochiq simlarni daraxtlardan tozalash;**
- **Transformatorlarni changdan o't – o'landan tozalash;**
- **Simlarni hozirgi zamonaviy kabellarga almashtirish;**
- **Avtomatik nazorat tizimini to'liq qo'llash**

Yuqoridagilar amalga oshirilganda har qanday ob-havo sharoitida ham elektr energiyasida isrof hamda uzilishlar bo'lmaydi. Noqulay havo sharoitiga qaramay o'z sohamizga sidqidildan yondashishimiz kerak. Har qanday ob-havo sharoitida ham xalq xizmatida bo'lishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.D.Taslimov, T.S.Mamarasulova, D.A.Rismuxamedov, Rele himoyasi. Toshkent. "Iqtisod-moliya" 2013.
2. A.I. Karshibayev, N.O. Ataullayev, B.SH. Narzullayev, Energiya tejamkorligi asoslari. Navoiy-2019
3. O.O.Hoshimov, S.S.Saidahmedov, Elektr yuritma asoslari. Toshkent. 2007
4. U.Ibrohimov, Elektr mashinalari. Toshkent. "O'qituvchi" 2001.



АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ИНФОРМАТИЗАЦИИ

Алишер Уринович Кобиллов
Ташкентский государственный
экономический университет
Хуршида Кахоровна Кодирова
Преподавательница средней
школы №20 г.Джизак

Аннотация. В данной статье обозначаются актуальные вопросы цифровизации и информатизации. Рассмотрены категории защиты информационных данных, такие как базовая безопасность, цифровая гигиена и дополнительная безопасность. Выделен основной инструмент цифрового развития, такой как мониторинг сетевых явлений в экономике.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровая безопасность, ИТ-инфраструктура, информатизация, цифровая среда, экономическая безопасность, цифровая угроза.

Процесс цифровизации и информатизации затрагивает большинство сфер жизни человека. Это обуславливает высокую необходимость в разработке мер по обеспечению цифровой безопасности. Безопасность в цифровой среде – это меры, направленные на защиту конфиденциальных данных и конфиденциальности в целом, доступности и целостности информации от хакерских атак и несанкционированных вмешательств.

В настоящее время организации имеют развитую ИТ-инфраструктуру и продолжают ее развивать. Таким образом, увеличивается вероятность того, что хотя бы один компьютер сможет заразить всю сеть. В этом случае важно, чтобы каждый сотрудник придерживался цифровой безопасности. В противном случае может быть поставлена под угрозу репутация всей организации. Следует помнить, что любое устройство, как служебное, так и личное, может стать каналом атаки и угрозой. Проблемы обеспечения экономической безопасности в связи с усложнением социальных, экономических, политических процессов и явлений становятся все более острыми. Современные направления деятельности могут быть источниками неизвестных ранее вызовов и угроз. Это требует разработки новых принципов для их минимизации.

Мировой опыт показывает, что обеспечение экономической безопасности – важнейшее условие стабильности и достижения результатов в развитии отдельных стран и общества в целом. Это можно охарактеризовать как набор экономических, политических и правовых инструментов, которые помогают защитить жизненно важные экономические интересы. В более широком смысле экономическая безопасность характеризуется способностью институциональной системы защитить интересы ключевых экономических субъектов на основе национальных и международных правовых норм при уважении национальных и экономических традиций и ценностей. Разделяют следующие категории защиты:

1. Базовая безопасность.
2. Цифровая гигиена. Эта категория содержит действия, которые необязательны, но очень желательны к исполнению.
3. Дополнительная безопасность.

Кроме того, большинство стран внедрило национальные программы защиты инфраструктуры, которые определяют технические и функциональные критерии для цифровых технологий и помогают выявлять потенциально уязвимые элементы путем разработки правил и процедур для обеспечения доступа к ним. Например, в некоторых странах ОЭСР (Австрия, Бельгия, Португалия, Швеция, Чешская Республика) созданы группы реагирования на компьютерные чрезвычайные ситуации, чтобы лучше обмениваться информацией и развивать партнерские отношения с организациями частного сектора, а также координировать цифровое взаимодействие между странами. Существует общее признание необходимости дальнейшего международного сотрудничества, реализации конкретных оперативных инициатив в области международной и региональной безопасности в цифровой среде, а также других форм двусторонней и многосторонней помощи.

Готовность государства к сетевой экономике во многом зависит от интереса основных субъектов экономики и их готовности использовать сетевые технологии в своей повседневной



деятельности. Они измеряются наличием сетевой инфраструктуры и доступом к цифровой информации, стоимостью подключения к сетям и уровнем конкуренции в отрасли, способностью компании эффективно использовать цифровые технологии благодаря наличию базовых образовательных навыков [1, 2, 3].

Такое изучение процессов формирования глобального цифрового общества позволяет утверждать, что реагирование на вызовы различных аспектов экономической деятельности требует признания взаимосвязанных и интегрированных подходов к пересечению различных научных дисциплин в сочетании с интеллектуальной глубиной и всесторонним учетом долгосрочных последствий. Мировое сообщество сможет ответить на новые вопросы только в контексте совместных усилий и ресурсов, что требует пересмотра существующей системы экономических отношений.

ЛИТЕРАТУРА

1. Валько Д.В. Экономическая безопасность: учебное пособие для вузов. – М.: Изд-во Юрайт, 2020. – 150 с.
2. Гумеров Э.А., Кузяшев А.Н. Экономическая парадигма интернета вещей / Междисциплинарный подход к исследованию современных социально-экономических процессов. Сборник научных трудов. – Уфа: Издательство: Башкирский государственный университет. – 2020. – С. 99-103.
3. Гумеров Э.А., Кузяшев А.Н., Шаяхметов И.Ф. Криптовалюта - новая парадигма мировой экономической системы // Экономика и управление: научно-практический журнал. – 2018. – №4 (142). – С. 104-108.
4. Попов Е.В., Семячков К.А. Проблемы экономической безопасности цифрового общества в условиях глобализации // Экономика региона. – 2018. – Т. 14, №4. – С. 1088-1101.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 16-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
